



KASB-HUNAR MAKTABLARIDA KASB TA'LIMI O'QITUVCHISI VA O'QUV USTASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.

Hamroqulov Shuxrat Xolmirzayevich

Toshkent viloyati O'rtachirchiq tumani

Agrasanoat va transport kasb-hunar maktabi maxsus fani katta o'qituvchisi

Shermuhammedova Zaxro Shuxrat qizi

Agrasanoat va transport kasb-hunar maktabi ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Kalit so'zlar: *kasbiy ta'lim, kasb-hunar maktabi, yetuk kadr, kasbiy mahorat, pedagogik vazifa.*

Annatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda yurtimizda kasb-hunarga intiluvchi yoshlarga nisbatan, ularning ilm-bilim olib, kasb-hunarli bo'lib umuman, jamiyatda munosib o'z o'rnini topishi bilan bog'liq masalalar, yoshlarni kasb-hunarga o'rgatib o'z kasbining yetuk mutahasisi bo'lib yetishishlari uchun kasbiy ta'lim va ishlab chiqarish ta'limi ustalariga qo'yiladigan ta'lablari yoritilgan.*

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilayotgan innovatsion texnologik jarayonlar, tadbirkorlikda, kichik biznes sohalarida yaratilayotgan ish o'rinlari o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlovchi mutlaqo yangi kasb-hunar ta'limi muassasalari tarmog'ini shakllantirishni talab etmoqda. Shunday ekan bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim-tarbiya jarayonini sifat jihatdan tamomila yangi darajaga ko'tarishni taqazo etmoqda. Shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi ushbu islohotlarning asosiy ta'lim-tarbiya ishlariga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan.

. Kasb-hunar ta'limi tizimida kichik malakali mutaxassislarni tayyorlash ko'p jihatdan kasb ta'limi o'qituvchilari va o'quv ustalarining layoqatlariga, bilim malakalariga, ishlab chiqarishdagi ortirgan tajribalarida bog'liqdir. Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida kasbiy pedagogik ko'nikma va malakalar tizimi yaratiladi, o'quvchilar kerakli ishlab chiqarish tajribasiga, kasbiy mahoratga ega bo'ladilar. SHuning uchun kasb-hunar maktablari kasb ta'limi o'qituvchilari va o'quv ustalari ishlab chiqarish jarayonining va o'z mehnat faoliyatining mazmunini aniq tasavvur etish lozim. Hozirda kasb-hunar ta'limi tizimiga har yili maxsus pedagogika ma'lumotiga va ta'lim-tarbiya ish tajribasiga ega bo'lmagan yangi muhandis pedagoglar, ya'ni korxonalarining malakali ishchilari, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining bitiruvchilari kelib qo'shilmog'ida. Kasb-hunar ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan muhandis-pedagoglar mutaxassislik malakasiga hamda pedagogik malakaga ega bo'lishi lozim.

Kasb-hunar ta'limi o'qituvchisining funktsional vazifalari Kasb ta'limi o'qituvchisining lavozim vazifalari quyidagilardan iborat:



- o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, mahorat va malakasini rivojlantirish;
- tanlangan kasb va ixtisosligi o'quv fanlari bo'yicha chuqur bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- ta'lim jarayonida o'qitishning samarali usullari, vositalari va shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash;
- o'qitadigan fani bo'yicha darsdan tashqari ishlarni, to'garak mashg'ulotlarni tashkil qilish;
- o'quvchilarni bilim sifati, o'zlashtirish darajasi va davomatini nazorat qilish; □ o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash;
- o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash;
- o'quv xonalarini jahon standartlari va dizayn talablari darajasida jihozlashda qatnashish;
- ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va qo'llash;
- muntazam ravishda malakasini oshirish.

Jahonda bo'lajak o'qituvchilarining innovatsion faoliyati kasbiy kompetentligi va metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o'zini o'zi kasbiy rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini yanada kuchaytiradi. Bu borada o'qituvchilarining nazariy tayyorgarligi, amaliy tayyorgarligi, kompleks tayyorlash, ta'lim amaliyoti variativligi, innovatsion muhitda texnika vositalaridan foydalanish, kompleks rivojlanish, multimedia tasvirli ma'lumotlarni qo'llash bo'yicha darslarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birgalikda, "fan va texnika tezlik bilan rivojlanayotgan vaqtda ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi ortib boradi. Bir tomondan, fan va texnikaning yangi soha hamda bo'limlarining differensiallashuvi ta'minlansa, ikkinchi tomondan esa, fanlar integratsiyasi vujudga keladi" shunday ekan har bir bo'lajak zamonaviy mutaxassis mustaqil ravishda ta'lim olishga va o'rganishga shunday tayyorlanishlari kerakki, ular nafaqat hozirgi mavjud texnika va texnologiyani bilishi, balki yangi texnika va texnologiyani ancha qisqa muddatda hamda samarali o'zlashtira olishlari lozim. Shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak kichik mutaxassisda ijodkorlikni shakllantirish va rivojlantirib borish alohida pedagogik vazifa ham hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir. Mehnat bozori ehtiyojlari asosida yoshlarni zamonaviy va sifatli kasb-hunarga o'qitish tizimini takomillashtirish yoshlarning munosib kasb, munosib turmush tarzi, munosib mehnat, farovon hayot va munosib daromad ishlash uchun shart-sharoit yaratishda kasbiy fan va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini zimmasiga katta ma'sulliyat yuklaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947- son Farmonining 1-ilovasi «2017-2021 yillarda Fzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
2. S.Qo'chqorov "Kasb ta'limi metodikasi" O'quv uslubiy majmua Namangan 2017
3. Eldasheva G. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – Toshkent.: O'MKHTKMO va UQTI. 2006. – 126 b.